

MUHSIN QODIROVNING TEATR SAN'ATIGA OID QO'LLANMALARI**Nozima Ulug'ova Baxtiyorovna**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6590811>

ANOTATSIYA: Maqolada Muhsim Qodirovning Madaniy - ma'naviy hayotimizda, ayniqsa, yosh avlodning kamol topishida muhim o'rin egallab kelayotgan Teatr va qo'g'irchoq teatrining qadimiy davrlaridan to bizning kunlarga bosib o'tgan tarixiy yo'llari, repertuari, ijrochilik mahorati haqida hikoya qilinadigan "Qo'g'irchoq teatri tarixi" qo'llanmasida, an'anaviy qo'g'irchoq teatrining XIX asr va XX asr boshlaridagi tarixi mufassal yoritiladi. Yozuvchi qo'llanmalaridagi aniq fikrlar va aynan nima haqida ekanligi kimlar uchun qanday muhim ko'nikma bo'lishi mumkinligi izohlangan.

Kalit so'zlar: Yozuvchi, teatr, qo'g'irchoq teatri, dramaturgiya, etnografiya, san'at, madaniyat, repertuar, obraz.

ABSTRACT: In the article Muhsim Kadyrov's historical paths, repertoire, performance skills of the theater and puppet theater, which play an important role in our cultural and spiritual life, especially in the development of the younger generation, from ancient times to the present day. In the guide "History of Puppet Theater", which tells the story of, the history of traditional puppet theater in the XIX and early XX centuries is covered in detail. The clear ideas in the author's manuals and exactly what they are about are explained as an important skill for whom.

Keywords: Writer, theater, puppet theater, drama, ethnography, art, culture, repertoire, image.

KIRISH

Atoqli olim, respublikada ananaviy o'zbek san'ati bo'yicha yirik mutaxassis. U san'atshunoslikda tarixiy, etnografik va adabiy asarlar asosida san'at tarixini tiklashdan iborat ilmiy yo'nalishga asos solgan. Respublika teatrshunoslik fanining shakllanishi va taraqqiyotida, sahna ijodkorlari, yosh olim va pedagoglarini tarbiyalab yetishtirishda Muxsin Qodirovning xissasi katta. Uning bevosita ilmiy rahbarligida 15 kishi fan nomzodi, 9 kishi fan doktori ilmiy darajasiga



muyassar bo'lgan. San'atshunoslik fanlari doktori, professor M.X.Qodirov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1978), Tabiat va jamiyat Xalqaro fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi(1997), " El-yurt xurmati" ordeni sovrindori (2003)dir. U 1958 1970 yillar orasida maxsus uyishtirilgan folklor ekspiditsiyalari va ilmiy safarlar davrida butun O'zbekistonni aylanib va ba'zi qo'shni mamlakatlarda bo'lib, 300 ga yaqin malakali xalq aktyorlari-qiziqchi, masxaraboz va qo'g'irchoqbozlarning nomlarini aniqlab, fa'oliyatini o'rganib, xayot bo'lganlaridan 200dan ziyod tomosha matnlarini yozib olgan, biroq ular shu paytgacha nashr qilinmagan. Ammo yozuvchining "Ananaviy teatr dramaturgiyasi" kitobida mana shu an'anaviy teatr, xalq sirki ustalari va ayol ijrochilaridan muallif tomonidan yozib olingan va nashrga tayyorlangan 85 ta tanqid, muqallid, kulgu-hikoyalar jamlanadi. Matnlar 6 qismga bo'lib joylashtiriladi, izohlar bilan taminlanadi. So'zboshi o'rnida berilgan "Og'zaki dramaturgiya" qismida o'zbek ananaviy teatri dramaturgiyasining kelib chiqishi haqida fikr yuritiladi.Ba'zi namunalarning tahlili asosida janrlari va turlariga tarif beriladi. Shuningdek og'zaki ijod bo'lmish ushbu san'at namunalari aniqlash va yozib olish tarixi qayd etilgan. To'plam xalq madaniyati tarixida ilk marotaba og'zaki dramaturgiya namunalari konkret va keng yoritishi bilan qimmatlidir. Ushbu qo'llanmadagi materiallar faqat san'atshunos, folklorshunos va etnograflarni qiziqtiribgina qolmasdan, balki xalq ijodiyoti bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar dramaturglar, sahna ustalari, san'at va madaniyat o'quv yurtlari, pedagoglari, talabalari uchun ham foydalidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADALOGIYA

Madomiki teatr san'ati haqida to'xtalar ekanmiz. Shu o'rinda ta'kidlash joizki Teatrni inson sifatida oladigan bo'lsak uning yuragi dramaturgiyadir. Dramaturgiya deganda, biz faqat muallifi ma'lum bo'lgan yozma pesalarnigina tushinib kelganmiz. Xolbuki O'zbekistonda shaxar madaniyati bilan bog'liq xolda to'rt ming yildan buyon yashab kelayotgan teatr mavjud bo'lib, o'ziga xos dramaturgiyaga tayanib fa'oliyat ko'rsatgan. O'zbek teatrshunosligida u ananaviy teatr deb ataladi (1. 16.b). Ananaviy teatr dramaturgiyasi ko'pincha og'zaki shakllarda nomoyon bo'lib kelgan. Shu bois o'zbek dramaturgiyasining yoshini XX asr bilangina o'lchash to'g'ri emas. Izzat Sulton o'zining "Adabiyot nazariyasi" nomli darsligida B.G.Belinskiy fikriga tayangan xolda "faqat XX asrda, oktyabr revolyusiyasining arafasida o'zbeklar millat sifatida o'zbeklar millat sifatida



sgakllana boshlab,"jamoatchilikka yot"likdan xalos bo'lganlaridagina o'zbek adabiyotida ilk dramatik asarlar paydo bo'ladi", deb yozadiki (2. 263.b) biz bu faktlarga qo'shila olmaymiz. Zero, Belenskiyning: "Xalq bo'lib emas, balki qabila bo'lib, cho'llarda tarqoq xolda yashagan, jamoatchilikka yot bo'lgan arablarda faqat lirika yoki lirik - epik poeziya mavjud edi, lekin dramatik poeziya ularda xech vaqt bo'lgan emas va bo'lishi ham mumkin emasdi", degan to'g'ri xulosasini (3. 139.b.) o'zbek madaniyatiga to'la tadbiiq etib bo'lmaydi. Chunki o'zbek millati tarkibini asosan dehqonchilik va xunarmandchilik bilan uyishib, o'rtoq bo'lib yashagan. Madaniyatli xalqlar va elatlar tashkil etgan. To'g'ri chorva bilan kun ko'rgan yarim ko'chmanchi o'zbek qabilalari ham bo'lgan, biroq ular ham shahar madaniyati tasiri ostida yashab kelishgan. Shuningdek, ularning o'z dostonchiligi, maydon tomoshalari, aytishuvlari, o'yinlari bilan umumxalq madaniyati taraqqiyotiga munosib xissa qo'shib kelganligini ham inkor etib bo'lmaydi.

NATIJALAR

An'anaviy teatr tomoshalari qadim-qadimdan bor ekan dramaturgiya bo'lishi turgan gap. Zeroki dramaturgiya teatr bilan birga tug'iladi. Uning badiiy negizini tashkil etadi. Ananaviy teatr tomoshalarida bazan turli vositalar uyg'unlashadi (sintez). Qo'g'irchoqbozlarning cholg'u kuylari, qo'shiqlari va usullar bilan yo'g'rilgan o'ziga xos musiqali komediyalari bunga misol bo'lishi mumkin. Chunki ularda turli san'at vositalari bir biriga shu qadar bog'lanib, chatishib ketadiki, natijada yangi bir yaxlit badiiy asar maydonga keladi. Masxaraboz va qiziqchilar san'atida ham bunday tomoshalar oz emas. Ammo ularning fa'oliyatlarida so'z, musiqa, raqs, sirk unsirlari yonma yon keluvchi tomoshalar ham ko'p uchraganki, bu sinkretiklik ba'zan qoloqlik nishonasi sifatida talqin etiladiki, bunga qo'shilish qiyin. "Bu badiiy-obrazli idrokning o'ziga xos sinkretikligi idrokning rivojlanmaganligi bilan emas, - deb yozadi B.E.Gusev, -balki idrok predmetining tabiati bilan belgilanadi, ya'ni xslq omasi o'z san'ati yig'indisi bilan belgilanadi, ya'ni xalq ommasi o'z san'ati yig'indisi bilan estetik tabiatining butun qirralari va murakkabligi bilan birga estetik bir butun, yaxlit tasavvur qiladi"(4. 224.b). An'anaviy teatr tomoshalari qo'llanmasi ko'p epezodli bo'lib, voqealari turli joylarda o'tsada, tanafuslar bilan ko'rsatilmagan. Shunga qaramasdan ayrim pesalarni mazmunidan kelib chiqqan xolda ko'rinishlarga bo'lib yozish ma'qul topilgan. Yozuvchimizning "O'zbek teatri tarixi" qo'llanmasida esa o'zbek an'anaviy teatrining XVIII-XX asrlardagi fa'oliyati, usta-shogird masalalari mudassal yoritiladi. Darslik san'at, madaniyat,



ma'rifat oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan. Ayni vaqtda u teatr san'ati ijodkorlari, dramaturglar uchun ham qimmatli manba bo'ladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ijtimoiy hayotning barcha yo'nalishlarida, jumladan ma'naviyat va ma'rifat sohasida ham tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Teatr san'ati ma'naviyatining eng yorqin, ta'sirchan ko'rinishlaridan biridir. Zero u tomoshabinlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sahna bilan tomoshabinlar o'rtasida samimiy bog'lanish, muloqot hosil bo'lib, ham sahna ijodkorlarini, ham tomoshabinlarini ma'nau va ruhan boyitadi. Ya'ni ikki tomonlama ta'sirlanish yuzaga keladi. Teatr bir yarim ikki soat ichida zamonaviy yoki tarixiy voqelikdan hikoya qilib, zalda o'tirganlarning fikrini o'zgartirib yuborishi, qalbida shuurida o'chmas iz qoldirishi mumkin shu bois bugungi kunda teatr san'atining ahamiyati va ma'suliyati nihoyatda yuksakdir. Chunki uning asosiy vazifasi mamlakatimiz fuqarolarini, ayniqsa yosh avlodni har tomonlama kamol topgan, qat'iy iroda va e'tiqodga ega shaxslar qilib tarbiyalashdan iborat. Alqissa, an'anaviy teatrning faoliyati XX asrning sovet istibdodi davrida ziddiyatli kechdi. Bir tomondan, masxaraboz va qiziqchilar o'z holiga tashlab qo'yilgani, ayniqsa, kulgi, hajv, tanqid yo'lida paydo bo'lgan g'ovlar, to'g'anoqlar tufayli bu sohada tushkunlik, parokandalik ro'y berdi. Ikkinchi tomondan, xalq aktyorlarining fa'oliyat maydoni kengayadi va ularning ijodi ilm-fan manbaiga aylana bordi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, davlat qurilishida, iqtisodiyot va ma'naviyat sohalarida yangi davr boshlandi. Xalqning ijodiyotga munosabati tubdan o'zgardi. Qiziqchilik va masxarabozlikni rivojlantirish uchun ham chinakam qulay sharoit va imkoniyat yaratildi. Demak, o'zbek an'anaviy teatri tarixini o'rganish yoshlarning boy ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimizni o'zlashtirib, milliy teatr an'alarini izchil davom ettirishlarida asqotadi. (5. 232. 233.b).

XULOSA

Muhsim Qodirovning madaniy - ma'naviy hayotimizda, ayniqsa, yosh avlodning kamol topishida muhim o'rin egallab kelayotgan qo'g'irchoq teatrining qadimiy davrlaridan to bizning kunlarga bosib o'tgan tarixiy yo'llari, repertuari, ijrochilik mahorati haqida hikoya qilinadigan "Qo'g'irchoq teatri tarixi" qo'llanmasida, an'anaviy qo'g'irchoq teatrining XIX asr va XX asr boshlaridagi tarixi mufassal yoritiladi. Shuningdek, XX asrning 30 yillarida vujudga kelgan yangi o'zbek qo'g'irchoq teatrining tarkib topishi va rivojlanish bosqichlari ilk marotaba umumlashtiriladi. O'zbek tilida "o'yin " so'ziday ma'nosi ko'p so'z bo'lmasa kerak. Artistning



mahorati, harakati texnikasi bilan sahnaviy tomosha shaklida yuzaga keladigan masxarabozlik, raqs nayrangbozlik, dorbozlik, chavondoqlik, muallaqchilik, ayiq echki, ilon o'ynatish, yog'och oyoq tomoshalari- qo'yinki xalq teatri raqsi va sirk san'atining namoyandalari esa "o'yinchi" deb yuritilgan. Xuddi shuning kabi xalq professional qo'g'irchoq teatri qo'g'irchoqbozlik ham "qo'g'irchoq o'yin" deb, qo'g'irchoqboz "o'yinchi" deb atalgan. Bunda "o'yin" so'zi iste'dod va mohirlik bilan etilgan tomosha, san'at, ijrochilik ma'nosini beradi. "O'yin" so'zi bilan qadimgi teatr, raqs va sirk san'atining bir-biriga yaqinlashtirilishida jon bor, negaki ularning asosida o'yin, ya'ni ijro, harakat, tomoshaviylik, mahorat yotadi. Shunday qilib, xalq professional qo'g'irchoq teatri qo'g'irchoq o'yin yoki qo'g'irchoqbozlik deb atalgan. Qo'g'irchoqchilar elu-yurtga ozor bergan, g'am- kulfat keltirgan zamon zo'ravonlarini tanqid qilish hamda turmushdagi ayrim qoloqliklar, egriliklar ustidan kulish bilan xalq uchun zarur bo'lgan katta ijtimoiy va estetik vazifani bajarib kelganlar.(6. 3.6.b). M. Qodirivning ushbu uch qo'llanmasi san'at sohasidagi, teatr va dramaturgiya sohasidagi ijodkorlar uchun juda kerakli ko'nikmalar safiga kiradi.

REFRENSSES:

1. Muhsin Qodiriv. O'zbek teatri an'analari T. G'.G'ulom nom. Nashriyot, 1976, 16 b.
2. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi.T.: O'qituvchi, 1980, 263 b.
3. Belenskiy. B. G. Tanlangan asarlar. T. 1955, 139 b. Oybek tarjimasi.
4. Gusev B. E. Estetika folklori. L. Nauka, 1967, 224 b.
5. Muhsin Qodirov. O'zbekiston teatri tarixi. T. Ijod dunyosi nashriyot.2003.232-233 b.
6. Muhsin Qodirov, S. Qodirova. Qo'g'irchoq teatri tarixi. T. Talqin nashriyot 206.36 b.